

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID**Dilmurodov Diyorbek Bobomurodovich**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15102609>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta'siri hamda ekstremistik va terrorchilik faoliyatlariga qarshi kurashishda O'zbekistonning tutgan o'рни hamda O'zbekistonda 2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu boradagi salbiy oqibatlarni oldini olish bilan bog'liq takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm, vijdon erkinligi, preventiv, konvensiya, Milliy strategiya.

RELIGIOUS EXTREMISM AND TERRORISM – A THREAT TO SOCIAL STABILITY

Abstract. In this article, today's impact of extremism and terrorism on the stability of society and the role of Uzbekistan in combating extremist and terrorist activities and in Uzbekistan The main priorities of the National Strategy of the Republic of Uzbekistan to fight against extremism and terrorism for 2021-2026 are discussed. There are also suggestions for preventing negative consequences in this regard.

Key words: fanaticism, extremism, terrorism, freedom of conscience, prevention, convention, National strategy.

**РЕЛИГИОЗНЫЙ ЭКСТРЕМИЗМ И ТЕРРОРИЗМ – СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА
УГРОЗА**

Аннотация. В данной статье рассматривается сегодняшнее влияние экстремизма и терроризма на стабильность общества и роль Узбекистана в борьбе с экстремистской и террористической деятельностью и в Узбекистане.

Обсуждаются основные приоритеты Национальной стратегии Республики Узбекистан по борьбе с экстремизмом и терроризмом на 2021-2026 годы. Есть также предложения по предотвращению негативных последствий в этой связи.

Ключевые слова: фанатизм, экстремизм, терроризм, свобода совести, профилактика, конвенция, Национальная стратегия.

Ma'lumki, O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati "Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", "Dunyoviylik – dahriylik emas" degan aniq tamoyillar asosida belgilandi.

Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiya hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda o‘zining huquqiy ifodasini topgan¹.

Bugungi kunda dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o‘ziga xos in‘ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Afsuski, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur‘atlardagi taraqqiyoti g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarga bo‘ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko‘payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko‘plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda.

So‘nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iroq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda.

Siyosiy hokimiyatga intilayotgan, diniy shiorlarni niqob qilib olgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazishga harakat qilmoqda. So‘nggi yillarda “jihodchilar”, soxta “salafiylar” kabi diniy-siyosiy guruhlar, shuningdek, “Xizbut tahrir” diniy-ekstremistik guruhi respublikamizda faol harakat qilishga urinmoqdalar.

So‘nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta’sir doirasiga olish, “Internet” orqali targ‘ibot o‘tkazish, oila a’zolari, yaqinlari va qo‘shnilarini o‘z guruhiga tortish, yashirin “hujralar” tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko‘rinishda tarqatish kabi usullarda amalga oshirmoqda.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko‘rinishlarini o‘zida tashuvchi g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g‘oyalar singdirilib, ular turli to‘qnashuv va nizo o‘choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog‘orasiga o‘ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o‘tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan,

¹ Qarang. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamalarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Ekstremizm va terrorizm insoniyat bilan birga XXI asrga kirib kelgan, eng xavfli ijtimoiy illatlardan biridir. Diniy rangbaranglikni rad etishi bilan mamlakat taraqqiyotining muhim tarixiy omili bo'lgan fuqarolararo hamjihatlikka rahna solishiga, aqidaparastlar nafaqat ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga zarar yetkazishi, balki jamiyatga ommaviy tarzda psixologik bosim o'tkazib, eng mudhish oqibatlarga olib kelishiga hamda dinni siyosiylashtirish va soxtalashtirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olishda barchamizning oldimizda turgan hayotiy muhim masalalardan biridir.

Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi. Ekstremizm va terrorizm dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solmoqda. Albatta, bu jarayonlar barchamizni ogohlikka chaqiradi. Boisi, tinchlik bo'lmagan joyda taraqqiyotga yo'l yo'q.

Yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning ahamiyati kattadir.

Ekstremistik va terroristik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo'rquv va vahimada tutib turish va shu yo'l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni so'ndirish va jamiyat taraqqiyotini jiddiy shikastlanishiga olib keladi. E'tiborlisi shundaki, ekstremistik va terroristik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror bir shaklda o'zlari jar solayotgan, o'zlari "intilayotgan" jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi. Yana tan olish kerakki, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta'sirining kuchayishi ham bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan darajada ko'zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib kelmoqda.

Ekstremizm va terrorizm illatining so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg'otayotgan omilga aylanib ulgurgan. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingani ayni haqiqatdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada: “Ayni vaqtda dunyoning ba’zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o‘z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda”² deya ta’kidlaganlar.

Aytish joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jahon hamjamiyati e’tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta’minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni “o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

Bizning xalqimiz terrorizm dahshatini o‘z boshidan bir necha bor kechirgan, bu buzg‘unchilik harakatining aziyatlarini juda yaxshi tushunadi. Jumladan, Toshkentda ro‘y bergan fevral voqealari, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun tumanlaridagi xunrezliklar, poytaxtimizdagi xorijiy davlatlar elchixonalarida terrorchilik akti sodir etishga bo‘lgan urinishlar, Andijon voqealari va boshqa terroristik harakatlarning bari ana shu yovuz kuchga birikkan jangarilarning konstitutsiyaviy tuzumga qarshi xurujlari edi.

Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish bo‘yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo‘la oladigan darajada o‘ziga xos tajriba shakllangan. Respublikamizda Prezidentimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna bo‘lishi mumkin bo‘lgan samarali ishlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

-to‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog‘lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro‘yxatdan chiqarish bo‘yicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasi sifatida aqidaparastlik g‘oyalari ta’siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-y.

-yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish, ma'rifiy islom ta'limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini chuqur o'rganish, jamiyatda diniy va milliy bag'rikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast g'oyalarga nisbatan mustahkam ma'naviy himoya qobig'i shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg'onada islom huquqi (fihi) ilmiy maktablari ochildi.

Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyushtirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda;

-har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yig'inlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan;

-aqidaparastlik g'oyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot yetkazish vositalaridan samarali foydalanishga urg'u berilmoqda. Xususan, "Diniy ekstremizm – kelajakka tahdid", "Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot kushandasi", "Ogoh bo'ling "Sekta", "Din niqobi ostidagi axborot xurujlari" nomli bukletlar tayyorlanib, mahallalarga, turli vazirlik, tashkilot va idoralar orqali aholiga yetkazilmoqda;

-xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning taniqli ulamolari Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Novosibirsk va Qozon shaharlari, Chuvash Respublikasi, Sibir o'lkasi, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga Ukrainaning Kiyev shahriga xizmat safariga yuborilib, mazkur tashriflar davomida o'tkazilgan diniy-ma'rifiy uchrashuvlarda ma'rifiy islom ta'limoti hamda hozirda buzg'unchi oqimlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinayotgan "hijrat", "jihod", "shahidlik" kabi tushunchalarning asl mohiyati haqida keng tushunchalar berilmoqda.

Dunyoda ekstremizm va terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga e'tibor qaratildi³. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ayni paytda aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm (xalqaro terrorizm) dunyo ahlining xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgani ko'pchilikka sir emas. Yovuz niyatli ekstremistik va terrorchi oqimlarning tarafdorlari xalqimizning tinch-totuv hayotiga raxna solishga, ayniqsa, kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarimizni yo'ldan ozdirishga harakat qilmoqdalar. Bu yovuz niyatlilarning farovon hayotimizni ko'ra olmaslik kayfiyati, tuzumimizga qarshi tajovuzdan iborat urinishlari barcha taraqqiyparvar kishilarni g'azablantirmoqda.

Ularning bunday xatti-harakatlarini qonun ham qattiq qoralaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida ekstremistik, boshqa ta'qiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunday ekan, qabih va razil to'dalar har qancha urinishmasin, bizni o'z tanlagan yo'limizdan chalg'ita olmaydi. Davlatimiz muntazam ravishda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash va uni oldini olish borasida izchil siyosatni yuritib kelmoqda. Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya'ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi.

Darhaqiqat, jadal suratda o'zgarayotgan bu zamonda eskicha yondashuv o'z samarisini bermaydi. Yoshlarni o'zimiz tarbiya qilmasak, ota-bobolarimiz yurgan yo'ldan yurmasak, ular erishgan yutuqlarga yeta olmaymiz. Respublikamizda so'ngi yillarda ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'rifiy yo'l bilan kurash olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ekstremistik oqimlar safiga adashib kirib qolgan, qo'li qonga botmagan va qilgan ishidan chin dildan pushaymon bo'lganlarga nisabatan kechirimlilik siyosatini olib borish, yosh avlodning turli buzg'unchi

³ Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 20.09.2017-y.

oqimlar safiga kirib qolishining oldini olish bo'yicha muntazam targ'ibot ishlarini olib borish dolzarb vazifalar etib belgilangan. O'z navbatida, mamlakatimizning ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'rifiy yo'l bilan kurash olib borayotgani ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar hamda mustaqil ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu borada targ'ibot-tashviqot ishlari muhim o'rin tutmoqda. Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, barcha ta'lim muassasalarida, mahallalarda, huquqni muhofaza qilish idoralarining rahbar xodimlari, qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, masjidlarining imomlari, ota-onalar vakillari, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida suhbat va uchrashuvlar, "Ekstremizm va terrorizm – insoniyat dushmani" mavzuida yig'ilishlar, ushbu mavzudagi videofilmlar, profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi. Darhaqiqat, ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, ekstremizm va terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ilgari surishi kerak. Ayni paytda ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq ta'qiqlangan har qanday faoliyat Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlarlan biri bo'lib qolmoqda. Bunda birinchi galdagi vazifalardan biri mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonda "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi"ni (keyingi o'rinlarda Milliy strategiya) qabul qilinishi mazkur noqonuniy faoliyatni mamlakatimiz va qo'shni davlatlarda nafaqat avj olishini balki, ushbu faoliyatga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassamlashtiradi hamda bir qator ustuvor yo'nalishlar va asosiy vazifalarni amalga oshirish zarurligini talab etadi.

Quyidagilar qabul qilingan Milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

- vatanlarvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag'rikenglik mafkurasini targ'ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;

-uzoq muddat xorijda bulgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish;

-Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;

-fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborotvositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;

-ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralari takomillashtirish;

-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ- huquqiy bazani takomillashtirish;

-ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish⁴.

Fikrimizcha, O'zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda ushbu noqonuniy faoliyat ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi lozimdir:

-ekstremizm va terrorizm tahdidlarini oldini olishning xalqaro-huquqiy asoslarni takomillashtirish va har qanday ta'qiqlangan faoliyatni amalga oshirganlik uchun javobgarlikning muqarrarlik tamoyilini keng targ'ib qilish;

-ekstremizm va terrorizm tahdidlariga ogoh turish borasida ijobiy natijaga erishgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mazkur sohada hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

-chet el davlatlarida bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolari bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan profilaktik choralarning samaradorligini oshirish;

-nafaqat O'zbekiston balki, butun Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi harakatlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni kengaytirish.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi tahdidlarni oldini olish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlarning samarali tizimini shakllantirishga

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi "2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6552-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2021-y., 06/21/6255/0638-son.

hamda jamiyatning turli qatlamlarida ekstremistik va terrorchilik g'oyalarining tarqalishiga to'sqinlik qilishda davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishiga erishish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnatsevarligi, bag'rikengligi va ma'rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta'minlanib kelinmoqda.

Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan turli millat va din vakillarining eng asosiy vazifalaridan bo'lmog'i lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son;
3. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi 167-II-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi "2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6552-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2021-y., 06/21/6255/0638-son;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 20.09.2017-y;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017-y.

Internet saytlari

7. www.lex.uz
8. www.uza.uz